

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON
TILLARI UNIVERSITETI XALQARO
JURNALISTIKA FAKULTETI**

KURS ISHI

***Mavzu: Abdulla Qahhor-so'z
ustasi***

Bajardi: Dilnoza MUHAMMADOVA.

Tekshirdi: Shaxnoza TO'YCHIYEVA.

TOSHKENT-2012

Mavzu:Abdulla Qahhor-so'z ustasi.

REJA:

I.KIRISH.*Abdulla Qahhor mohir so'z san'atkori.*

II.Asosiy qism:

1.Abdulla Qahorning o'tmish haqidagi hikoyalari.

2. Abdulla Qahorning adabiy merosi.

3.Abdulla Qahhor va Chexov ijodining ustuvorligi.

III.Xulosa.*Abdulla Qahhor asarlarining umrboqiyligi.*

Har bir xalqning ma'naviy yuksalishida o'sha xalqning is'tedodli ijodkorlari yaratgan madaniy meros katta rol o'ynaydi. Aytish joizki ulkan so'z san'atkori Abdulla Qahhorning adabiy merosi xalqimiz ma'naviy tafakkurini komillikka yetaklovchi cho'qqilardan biridir. U betakror ijodkor sifatida ham, ulug'vor fazilatlarga ega bo'lgan shaxs sifatida ham xalqimiz ma'naviy hayotida manguликka aylangan siymodir.

Abdulla Qahhor xilma-xil janrdagi asarlari bilan ona Yurtimizning yaqin o'mishining tarixi va o'z davrining to'laqonli manzarasini, zamondoshlarimizning yuksak fazilatlarini faqat o'zigagina xos bo'lgan siqiq va tabiiy hamda boy tafakkurga ega bo'lgan ijodiy uslubda tasvirlab adabiyotimizda maktab yaratdi, unga yangi nafas olib kirdi.

Abdulla Qahhor mohir so'z san'atkori edi. Muayyan xarakter va holatni aks ettiradigan so'zni qo'llab va uni o'z qolipiga tushgandek o'rnini topib ishlatish unga maroq bag'ishlardi.

Bu jihatdan u haqiqiy mo'jizakor adib edi. So'z uning oldida bamisoli itoatkor askar, qaysi ma'no tomon buyruq qilsa shu tomon yuz tutib, xizmatiga tayyor turgandek edi. Shunga qaramasdan so'zlarni ayab son jihatdan kam so'z bilan katta va teran fikrlarni ifoda qila olishi hammani taajjublantirardi. U shaxs-personajlarini, ular tushgan vaziyatni, bu vaziyatda ularning holatini aniq ko'ra bilar va shu tarzda tasvirlay olardi. Uning asarlari hayotining o'zidek tabiiy edi. U o'zining hikoyalarida-hayot nafasini, davr ruhini bexato

ochish,faqat sezish emas,uni teran anglash,undan ulug' shaxs,adib sifatida dardlanishdan iborat edi.

Uning drammlarini tomosha qilar ekanmiz persanajlarining ba'zi birlarining ustidan kulib,g'azablanib yomon ko'rib qolamiz,ba'zilarida esa o'zimizda paydo bo'lgan xayrixohlikni sezamiz. Ammo bularning barchasining zamirida jamiyatimizning faol a'zosi,haqiqiy fuqaro ijtimoiy hayotdagi buzilishlarning ashaddiy dushmani,qalbi pok inson dardi turadi.Biz o'sha dardlarni baralla eshitamiz,o'zimizni unga jo'r hisoblaymiz.

Abdulla Qahhor dastavval o'zbek adabiyotida mohir hikoyanafis sifatida shuhrat topdi.Darhaqiqat,u yangi o'zbek adabiyotidagi realistic hikoyachilikning shakllanishi va rivojlanishida Benazir ijodkor sanaladi. U mazkur janrda xalqimizning XX asr boshlaridagi to'fonli hayotning,sobiq sho'ro tuzumi davridagi turmush tarzi va undagi butun murakkabliklar,millatimizga xos bo'lgan fazilatlatlarni butun bo'yi-basti bilan haqqoniy tasvirlab berdi.

Xususan, adib "Anor","Ko'r ko'zning ochilishi","O'g'ri","Bemor","Dahshat","Adabiyot muallimi","Ko'k konvert","Kampirlar sim qoqdi","Asror bobo","To'yda a'za" kabi hikoyalari bilan XX asr o'zbek nasrida birinchi bo'lib,izchil realism tasvir imkoniyatlarini sergiloligini isbotlab berdi.

Abdulla Qahhorning o'z tabiri bilan aytganda,inson xarakteriga birinchi bor qo'l urib yaratgan hikoyasi-"Boshsiz odam" edi.Keyinchalik adib bu hikoyani o'zining 6-tomlik asarlariga ham kiritdiki,bu fakt

muallifning “Boshsiz odamga” munosabati ko’p yillar davomida ijobiy bo’lib qolganidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, hikoyaga adib o’z oldiga qo’yilgan maqsadga erishgan-unda o’zining betakror xarakteriga ega bo’lgan, esda qoladigan individual xususiyatlari bilan oshirib turadigan qahramon obrazi yaratilgan.

Bu-Fahriddin. Voqea bizning davrimizda XX yillarning oxirida bo’lib o’tadi. Aniqrog’i, hikoyaga aytarlik voqea yo’q, lekin shunga qaramay, u- boshsiz, ya’ni miyasiz. Fahriddin yoshi anchaga borib qolgan bo’lsa ham, mustaqil fikrlay olmaydi.

U hayotdagi eng oddiy haqiqatlarni ham bir- biriga chaqib, tahlil qilish

qobilyatidan, ko’rgan, kuzatganlaridan hulosa chiqazish qobilyatidan mutlaqo mahrum.

Uning hayotda o’rni yo’q, u o’zini shaxs sifatida idrok ham etolmaydi, butun olamga, odamlarga, ular o’rtasidagi munosabatlarga otasi ko’zi bilan qaraydi, hamma narsani otasini qarichi bilan o’lchab, otasini didi bilan baholaydi.

Uning noshudligi, notavonligi, shakligina odamga o’xshashligi, ayniqsa, tug’uruqxonada yotgan Mehrini ko’rgani borgani tasvirlangan epizodga yorqin ochilgan.

Bu hikoyada yozuvchi xalq ijodiga xos usullardan ham rus mumtoz adabiyoti tajribalaridan ham samarali foydalanganligi ko’rinib turadi.

“Boshsiz odam” hikoyasini yana bir jihati bor- bu jihat Abdulla Qahhor uslubini o’ziga xos tomonlarini birini namoyon qiladi. “Boshsiz odam” real hayotiy faktlar asosida, yozuvchi o’zi hayotda ko’rgan, kuzatgan hodisalar zahirida yaratgan.

Abdulla Qahhorning amakisini esa hikoyaga o'zining hayotdagi nomi bilan usta Abdurahmon bo'lib kirgan. Adib keyinchalik "O'tmishdan ertaklar" da amakisini ham G'afforni ham keng tasvirlagan, ularga munosabati sovuq bo'lganini hikoya qilgan.

Tabiiyki, adib hikoyaga hayotdagi voqealarni qayta ishlagan holda, saralab kiritgan, shu tufayli ham feodal psixologiyasining aksil-insoniy mohiyatini durust ochib bergan.

O'tmish haqidagi hikoyalari ichida "O'g'ri" alohida ajralib turadi. Juda ixchamligi, soddaligi, psixologiya xarakteristikalarining aniqligi, detallarining yorqinligi, tilining rangdorligi, g'oyaviy umumlashmalarning kuchi bilan bu hikoya haqiqiy ravishda kichik epik formalarga realizmning tashqan ifodalagan ajoyib namuna bo'lib qoldi.

Hikoyada voqea shu qadar jonli gavalantirilganki, o'quvchi o'tmishda dehqon boshida singan tayoqlarning qasir-qusurini aniq eshitayotgan bo'ladi. Hikoyada quruq nasihat, ensani qotiruvchi ditaktika, zeriktiradigan bayon yo'q, g'oya to'laligicha asarning to'qimasida singib ketgan.

Bunga yozuvchi xarakterlarni psixologik jihatdan chuqur asoslash orqali, tabiiylik va hayotiylik orqaliy erishgan.

Hech kutilmaganda eng qimmatli, eng zarur, planidan ortiq turadigan narsasidan, yagona ko'makchisidan ayrilgan va falokatning butun fazilati, alamli oqibatini hali oxirigacha anglab yetmagan odamning holati, bu yerda juda aniq va tabiiy ochilgan.

Uning titrashi ham,jovdirashi ham,najod izlab odamlarga mo'ltirashi ham, madorsiz tizzalari ham dabdurustdan qattiq zarba yeb, karaxt bo'lib qolgan odamning ahvolini yaxshi ifodalaydi.

Bu tasvir o'quvchiga Qobil boboga achinish hissini uyg'otadi,uning taqdiri bizga yaqin bo'lib qoladi,biz ham endi Qobil bobo bu fojiadan qanday qilib qutulishni kuzata boshlaymiz..

Yozuvchi hikoya voqeasining tabiiy oqimini susaytirishdi,vaziyat talab qilgan eng hayotiy detallarni kiritib,xarakterni kuchaytiradi. Voqeaga burunsiz ellikboshi aralashadi.Uning birinchi qadamlaridanoq biz ellikboshining qanaqa odamligini payqay boshlaymiz.U Qobil boboning uyiga kelishi zamon,darhol og'il yonida taftish o'tkazadi:"U og'ilga kirib teshikim,ho'kiz bog'lashgan ustunni qimirlatib ham ko'radi".Uning bu harakatlariida,ayniqsa ustunni qimirlatib ko'rishida boshiga falokat tushgan Qobil boboning taqdiriga,qayg'usiga befarq qarash,loqaydlik seziladi.U o'zining taftishi bilan biron chora topishga,o'g'rini tezroq izlab,ko'rishga urinayotgani yo'q. Aslida uning taftishi ma'nosiz,shunchaki rasmiyat uchun o'tkazilgan taftish.Uning birdan-bir foydasi shuki,ellikboshining harakatsizligini niqoblaydi.Ellikboshining loqaydligi uning kankret ma'noda hali umumiy so'zlarida yanada aniqroq ko'rinadi:"Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi,topiladi!"-deydi ellikboshi. Hol buki,Qobil boboga achingan yurakdan qo'ygan,unga yordam berishmoqchi bo'lgan odam bunaqa umumiy gaplar o'rniga biron amaliy ish qilishi,temirni qizig'ida

bosib,o'g'rini iziga tushishi lozim edi.Uning keyingi gapidan biz ellikboshining Qobil bobo taqdiriga loqayd qarashinigina emas,uni haqorat qilayotganining,mensimayotganini,yerga urayotganini hali sezib olamiz.

“Yig'lama! Yig'lama deyman! Ho'kizning oq poshsho qo'li ostidan chiqib ketmagan bo'lsa,topiladi” Ho'kizni topilish shartini qarang “Oq poshsho qo'li ostidan chiqib ketmagan bo'lsa” emish. Har bir sog',esi butun odam bu gapning zamiridagi haqorat va tahqirni payqab olishi qiyin emas.Ammo Qobil bobo najod kutadi,va unga har qanday ohangda aytilgan “topiladi” degan so'z “mana ho'kizing” deganday tuyuladi.”Ho'kizing topiladi”deb ko'ngil ko'tarilgani uchun ellikboshiga “bir nima”berishi kerak...

“Qobil bobo hamyonini qoqqaytirib,birini ellikboshiga beradi,yana qancha duo qiladi”. Nega endi ellikboshiga “bir nima”berish kerak?

Yozuvchi buning sabablarini ikki og'iz gap bilan ochadi: “Tekkinga mushuk oftobga chiqmaydi”.Bu odam ellikboshi bo'lish ularni ozmuncha pul sochganmi?

Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda,bir toy bergani ma'lum”

Bunday yo'llar bilan amalga mingan odam uchun,tabiiy,ellikboshchilik-xalqning xizmatini qilib,mushkulini yengillashtirish emas,boylik orttirish vositasi bo'ladi.

Qobil boboning hamyonidagini olgandan so'ng ellikboshining butun qilgan shu bo'ldiki,u “beto'xtov aminga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketadi”

Shundan keyin voqeaga “amin” kirib keladi.

Abdulla Qahhor amin obrazini ham zo’r mahorat bilan yaratgan.

Yozuvchi uning partretini chizmaydi, biografiyasini aytmaydi, fikrlari, yashash tarzi, poraxo’rligi va hokazolar to’g’risida ma’lumot bermaydi. Biroq uning Qobil boboga aytgan uch-to’rt og’iz gapidan, u bilan gaplashomayotganidan ikki-uch qilig’idan aminning butun qiyofasi namayon bo’ladi qoladi bizning ko’z o’ngimizda.

O’sha razil, iflos va qabih bir maxluq paydo bo’ladi. Amin obrazini chizishda yozuvchi dramatic asarlarga xos usullardan-uning nutqi orqali xarakterini ko’rsatadi, kimligini ochish usullaridan foydalanadi. Qobil bobo ne-ne azoblar tortib, qo’rqib, umid qilib Aminning qoshiga keladi. Amin bu sho’rpushana bechara cholni ko’rib... “og’zini ochmagan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi”. Shu o’rinda olingan parchani sharhlashdan avval jindak chekinish qilib, bir masalada ba’zi mulohazalarni aytishga ehtiyoji seziladi.

Gap shundaki, bir vaqtlar Abdulla Qahhorga bag’ishlangan bir ilmiy asarda shu parcha munosabati bilan aytilgan g’alati fikrlarga ro’ba-ro’y kelishi mumkin:

“Adib ikki-uch so’z bilan aminning tashqi qiyofasini yorqin chizadi. Aminning baq-baqasini ta’kidlash bilan semiz ekanligini izhor qiladi. Uning kekirishi detalida to’qlikni bildiradi. Etigiga urg’u qo’yish orqali boyligini, yaxshi qiyinlashishi ko’rsatadi”. Albatta yozuvchi hikoyada aminning kekirishini, og’iz ochmay

qo'yishini,baq-baqasini tilga olgan ekan,buni bemaqsad qilmagan,lekin ular orqali aminning semizligini yohud to'qligini ham ifodalamoqchi ham bo'lmagan.

Shu harakatning o'zida yozuvchi aminning sinfiy mohiyatini ochadi,lekin uning to'qligi,yaxshi kiyinishini namoyish etish bilan emas boshqa tarzda ochadi.

Shu harakati tufayli amin bizning ko'z o'ngimizda Qobil boboni oyoq uchida ko'rsatadigan razil bir kimsa ekani namayon bo'ladi. Ularning tashvishi,g'ami,kulfati aminga osmondagi yulduzlardan uzoq.Aminda boshqalar uni qayg'urish,birovning dardiga sherik bo'lish,fuqaroning boshini silash,og'irini yengil qilish singari narsalar mutlaqo yo'q. Aminning bundan keyingi so'zlari bu fikrimizning to'la tasdiqlaydi.

“Sigir yo'qoldimi?”- deb so'raydi amin voqeadan garchi xabardor bo'lsada.Yig'lab,qaltirab,amindan najod kutib mo'ltirab turgan Qobil boboga:

“Yo'qolishidan oldin mormidi?...Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi ?...degan bema'ni savollarni beradi.Hatto dushmaningni ham bunday tahqirlashga haqqi yo'q edi.Bunday muomilaning tagida oddiy fuqaroga,kambag'al dehqonga mensimay,befarq qarash,qolaversa undan nafratlanish,xazar qilish tuyg'usi yotadi.Qobil bobo amin uchun daromad manbai,xolos.

U aqalli ellikboshiniga o'xshab jilmayib ham o'tirmaydi.Ochiqdan-ochiq pora so'rab beradi:

“Suyunchisi nima bo'ldi? Suyunchidan chashma olib kelinmadimi? Bir haftadan keyin ma'lum bo'ladiki,”suyunchi” evaziga aminning bor-yo'q qilgan

ishi Qobil boboga “pristafka” arz qilishiga ruxsat berishdan iborat bo’ladi.

Hikoyaning boshida “aminning o’limi-itning bayrami” degan maqol keltirilgan. Hikoyaning so’ngida biz bu maqolaning ma’nosini kankret tushunamiz.

Ko’ramizki, Qobil bobo ahir fojiani boshidan kechiradi. Biroq asl fojia ho’kizni o’g’irlanishi emas. Qobil bobo fojiasining asl sabablari- ellikboshi, amin, tilmoch, pristavlar.

Ular Qobil bobo ustiga ko’zgudek yopishtirilib, uning bir tomchi qonini qoldirmay so’rib olishadi.

Ular bu ojiz, notavon, mushtipar odamni mazax qilishadi, xo’rlashadi, tuproqqa qorishadi, uning insoniyligi qadru qimmatiga tupurishadi. Qobil bobo esa buni tushunib yetmaydi. Uning asl fojiasi Masha shunda.

Yozuvchi Qobil boboning ayanchli taqdirida o’tmishdagi yuz minglab oddiy odamlarning og’ir ahvolini umumlashtirib ko’rsatadi.

Abdulla Qahhorning o’tmishi haqidagi hikoyalarni xajman kichik bo’lsa-da, mazmunan teranligi, badiiy o’tkirligi bilan o’zbek prozasi rivojida alohida o’rin tutadi, chunki, shu hikoyalarda realistic prinsiplar uzil kesil shakllanib, barkamol tarzda namoyon bo’ladi.

30-yillardagi adabiy vaziyat ancha murakkab bo’lsa-da, tanqidchilar Abdulla Qahhor boshiga bir-biridan vahimaliroq tahdidlarni yog’dirib turgan bo’lsa-da, adib bu yo’llarda ilhom bilan to’lishib-yonib ijod qiladi, va ellikdan ortiq hikoyalar yaratadi.

Ularning bir qismi yuqorida ko’rganimizdek, o’tmish manzaralariga bag’ishlangan edi. Ko’pchilik hikoyalar

esa,zamonaviy mavzularda bo'lib,ular ham g'oyaviy mazmunga,shakliy xususiyatlariga ko'ra ikkiga ajraladi

Bu hikoyalarning ko'pchiligi xajviy hikoyalardir.Ularda odamlarda uchrab turadigan turli-tuman kamchiliklar tanqid qilinadi. Bu hikoyalar o'z vaqtida juda katta ijtimoiy-tarbiyaviy qimmatga ega edi.

Bunday qarashlarga moyil tushunchalar Abdulla Qahhorni salbiy xodisalarni qalamga olgani, hajviy asarlar yaratgani uchun savalashadi.

Yana o'sha yillarda rasmiy tus olgan qarashlarga ko'ra, ijtimoiy realizm birinchi navbatda,hayotning yorqin,ijobiy tomonlarini tasvirlashi kerak.

Ijtimoiy realizm asarlarida ijobiy kuchlarning g'alabasi muqarrar ekani ko'rsatiladi,salbiy kuchlar esa,albatta o'lib borayotgan,istiqboli yo'q kuchlar sifatida ko'rsatiladi.

“Bemor” hajm jihatdan juda kichkina, “mitti”hikoya. Undagi voqea ham g'oyat oddiy-Sotiboldining xotini og'rib qoldiyu vafot etadi. Odamning kasalga chalinishi,xastalik tufayli vafot etishi-tabiiy narsa,buning hayrat qoladigan joyi yo'q. San'atkorning sehrli qalami ostida mana shu juda jo'n,tabiiy voqeani bayon qiluvchi kichik hikoya o'tmishini qoralovchi dahshatli aybnomaga aylanadi. Sotiboldi ham,unung xotini ham o'tmishidagi g'ayriinsoniy tartiblarning,ijtimoiy tengsizlikning,faqirlikning qurboni,yozuvchi aniq topilgan,tejab ishlatilgan detallar orqali o'quvchini ana shu xulosaga olib keladi.

Ehtimol,Sotiboldining xotini tuzalib ketishi mumkin edi. Ammo “doktorxona”deganda Sotiboldining ko'z o'ngida izvosh va oqpodshoning sur'ati solingan 25

so'mlik pul keladi.25 so'm! Ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavramlar ichiga ko'milib,savat to'qiydigan Sotiboldi esa juda yorlaqaganda baqqoldosh yigirma tanga qarz olishi mumkin.Uning xo'jayini Abdug'ayniboyga 25 so'm cho't emas albatta.Ammo u Sotiboldiga 25 so'm berib,xotinini 25 so'm berib doktorga ko'rsatishni maslahat bermaydi.Buni xayoliga ham keltirmaydi,aksincha,u devoni Bahovuddin bilan G'avsul a'zamga sadaqa atashini maslahat berishidan nariga o'tmaydi.Chor-nochor Sotiboldi xonaki tadbirlarga murojaat qilishga majbur bo'ladi: xotini o'qitadi,xipchin bilan savalatadi,chilyosun qildiradi. Sotiboldining "ko'pchiligiga armon bo'lmasin" ma'nosiga qilgan bu harakatlari cho'kayotgan odamning somon parchasiga yopishishini eslatadi.

Yozuvchi bemor atrofidagi vaziyatni juda ixcham va aniq tasvirlaydi:

"To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasi yuzini karaxt,nimjon xira pashshalardan qo'riydi,ba'zan qo'lida ro'mol bilan mukka tushib,o'xshab qoladi. Hamma yoq jim.Faqat pashsha g'ing'ilaydi,bemor miqilaydi; Har zamon yaqin yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi. "Hey do'st,shaydullo ba nomi ollo,sadaqa raddi balo,va qavli rasulli hudo..."

Xira pashshalarning g'ing'illashi,bemorning ing'illashi,gadoyning ahyon- ahyondagi tovushigina buzadigan go'riston sukunatiga o'xshash bu sovuq tillik hikoyaga muayyan psixalogik kayfiyat tug'diribgina qo'ya-qolmaydi,balki qahramonlar boshiga tushgan munosabatning qanchalik og'irligini yanada bo'rttiradi.Sotiboldi qahri qattiq dunyoning (qahri

qattiq,tajovuzzi qarshisida himoyasiz,nochor,notavon,u faqat talvasaga tushishi, boshini har tomonga urishi,yig'lab-siqtagigina mumkin,qo'lidan boshqa hech narsa kelmaydi.

Zulmat dunyosida,tengsizlik olamida,fojia qarshisida notavonlik, ojizlik birgina Sotiboldining qismati emas.Hikoyada shunday detal bor; talvasaga tushib,gangib qolgan Sotiboldi qo'shni kampirni yordamga chaqiradi:

“Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatadi,u yog'-buyog'ini silaydi,so'ngra... o'tirib yig'laydi”

Bemor,Sotiboldigagina emas,sho'ring qurg'ur kampir ham taqdir zarbalari qarshisida ojiz,notavon.

Sotiboldilar fojiasining butun daxshati har kuni sahardan xudodan onasining dardiga shifo so'rab,duo qiladigan to'rt yashar begunoh go'dak orqali yanada chuqurroq ochiladi.

Hikoya fojiasida onasining murdasi yonida ma'suma go'dakning uyqisirab aytgan: “Hudoyo ayamdi daydiga davo beygin”-degan so'zlarini o'qir ekanmiz,bu so'zlar bizga go'dak qalbidan chiqqan istisno emas,insonni shunchalar xor qilgan,tilsiz,qaysar notavon qurbonga aylantirgan,uni juraat chilchillari bilan bo'g'aeva tashlagan dunyoga qarshi yuramiz qa'ridan ko'tarilgan la'nat nidosiday tugaladi.

Abdulla Qahhorning 30-yillardagi hajviy hikoyalarida insonni qadru qimmatini pastga uradigan turli-tuman nuqsonlar,har xil illatlar badiiy jihatdan teramlar atroflicha tadqiq qilishgan. Masalan, “Bek”, “Og'aynilar”, “Ikki yorti bir butun”, “Mulofiq” kabi hikoyalarda Abdulla Qahhor

laganbardorlik,xushomadgo'ylik,mulofiqlik kabi illatlarni qattiq qoralaydi.

Bu illatlar hamisha jamiyatda zararli,odamlarning o'zaro munosabatlariga rahna soluvchi illatlar bo'lib keladi. Ammo muayyan sharoitda bu illatlar,ayniqsa mulofiqlik odamlar boshiga son-sanoqsiz kulfatlatlarni slogan.

Abdulla Qahhor "Mulofiq" hikoyasiga shunday shaxsning kishini ijirg'aytiruvchi obrazini yaratgan.Kattakon ketman nusxa shapka kiygan, enli kamar bog'lab yuradigan Nizomiddinov xalq dushmanlarini fosh qilish maqsadida kurakda turmagan dalillarni ro'noch qilib,halol odamlarga tuxmat yog'diradi,ularga siyosiy ayblar qo'yadi. Biri shuning uchun dushmanki, "o'rmoq Buzrikov o'g'lini otini Maris qo'yganida kulgan". Ikkinchisi shuning uchun dushmanki, "Bir mushtimzo'rlardan echki sotib olgan". Yana bir chol "8 mart kechasi bo'shagan shishalarni uyga olib ketgan".Nizomiddinov boshqalarga tuhmat yog'dirish yo'li bilan ularni qo'rqitib olishga intiladi,hamma undan cho'chisa,shunga uning oshig'i olchin,birov mushugini pisht deyolmaydi.

Holbuki,Nizomiddinovning o'zi munofiqqina emas,u o'taketgan laganbardor-xushomadgo'yligi shu darajadaki,boshlig'ini kuldirish uchun qovunga piyoz qo'shib yeydi.

Xullas,hikoyada munofiqlik e'tiqodsizlik bilan qo'shilib ketganda jamiyat uchun xavfli illatga aylanishi yaxshi ko'rsatilgan.

Bulardan tashqari madaniyatsizlik,ongsizlik,nodonlik,manmanlik kabi

qusurlar “Adabiyot muallimi”, “San’atkor”, “O’jar”, “Ayb kimda”, kabi hikoyalarda yaxshi ochilgan. Yangi hayot, yangi madaniyat, yangi axloq va yangi psixologiya egalari Abdulla Qahhorning hamma hajviy hikoyalarida salbiy qahramonlarning salbiyligi yanada chuqurroq ta’kidlaydigan fon vazifasini bajaradi.

Abdulla Qahhor ijodiga xos satirin yo’nalishini Ozod Sharofiddinov shunday ta’riflaydi, “Abdulla Qahhor hajviyotga, satiraga, kulgiga moyil yozuvchi. U adabiyotdagi birinchi qadamini satiradan boshlagan. Yigirmanchi yillarda Respublikamizda chiqqan gazeta va jurnallarning varaqlasangiz “Gulyor”, “Yalang oyoq”, “Nish” degan g’alati taxallusga duch kelasiz. Ularning adabiyot dargohida endigina qadam qo’ygan 17-yashar Abdulla Qahhor o’ylab topgan edi. Bu taxallus bilan bir talay satiric she’rlar, o’tkir fel’etonlar, kulgili hikoyalar bosilgan. Biz uning asarlarini o’qib, ulardan qiziq voqealardan, ajoyib odamlardan, o’tkir iboralardan, ma’nodor qochiriqlardan, nozik hikoyalardan zavqlanib ko’p kulganimizni va yozuvchining is’tedodiga tahsin o’qiganmiz. Shuning uchun tahsin o’qiganmizki, tom ma’nodagi satiric asar yaratish juda qiyin ish. Bu hamma yozuvchiga ham muyassar bo’lavermaydi. Satira to’xtovsiz zo’rayib boradigan mubolag’a emas. Satira-hayotga, har qadamda, hodisalar zahirida yashirinib yotgan kulguni payqashga, uni asarga ko’chirib, qayta yaratishga, jonlantirishga imkon beradigan alohida qobiliyat tufayli tug’iladi.

Abdulla Qahhor ana shunday kamyob iste'dod egasi,hajvga ,kulguga moyillik uning qon-qoniga singib ketgan xususiyat,qolaversa,uning fikrlashidagi o'ziga xoslikdan tug'ulgan.

Abdulla Qahhor birinchi satiric asarlarini yozish uchun qo'lga qalam olgan paytlarida o'zining hajviyoti bilan Abdulla Qodiriy ijod qilar edi. Shu tariqa Abdulla Qahhor hajviy hikoyalarida turli-tuman ijtimoiy illatlarni ishonarli satiric tillarda mujassamlashtirar ekan,shu illatlarni qoralash,qusurlarni rad etish bilan cheklanmaydi.U ayni chog'da yangi hayotning qudratini qadamini ham tasdiqlaydi.

Abdulla Qahhor kamdan-kam hollardagina qahramon harakterini bayon qilish,ta'rif-tavsif yordamida ochadi,asosan esa ular bevosita harakatda ko'rsatiladi.

Adib yaratgan satiric obrazlarda partret ham muhim o'rin tutadi.

U,ayniqsa,psixalagik partretidan keng foydalanadi.Biz yuqorida "Munofiq" hikoyasiga ma'lum darajada to'xtab o'tdik. Endi shu hikoyada qahramon partreti qanday chizilganiga ahamiyat beramiz.

"U kattakon keman nusxa shapkasini ustiga qo'yib,bir quchoq matrial bilan minbarga chiqdi:enlik kamarini tortib bog'lab" Mana endi so'zlash payti keldi" deganday majlis ahliga bir nazar tashladiyu so'z boshladi:

-O'rtoqlar! Traukeychi-Buxoriylichi boshditlar,burjua millatchilari ...Ketdi...

Sirasini aytgandan,bu parchani tom ma'noda tugal deb bilmaydi. U tepalikni yo sochi jingalakmi,nozini ajin bosganmi yo ham silliq,qip-qizilmi,burni,qoshi,quloqlari

qanaqa,ozg'inmi-hikoyada bularning hech qaysisi tilga olinmaydi.Bunday oddiy hikoya davomida ham uning tashqi qiyofasi tilga olinmaydi.Biroq shunga qaramay,o'quvchida Nizomiddinovning qiyofasini ko'z oldiga keltiradi,uning qanaqa odam haqida tugal tasavvur hosil qiladi.U kitobxon diqqatini Nizomiddinov qiyofasidagi ikkita narsaga-uning "ketman nusxa shapkasi" yu "enlik kamariga" nasib qiladi...

Shunisi muhimki,shapka ham,kamar ham faqat obrazni shakllantirish uchun,uning qiyofasiga kankretlik baxsh etish uchungina xizmat qilmaydi. Ayni choqda bu detallar satiric tipning ijtimoiy mohiyatini ta'kidlovchi muhim vositahamdir. Gap shundaki,30-yiilarning o'rtalarida ketman nusxa shapka,ko'kragida ikkita cho'ntakli,qaytarma yoqali,nimasi bilandir galifega o'xshab ketadigan yarmi harbiycha shim,xram etik ancha modaga kirgan edi.Biroq muayyan toifali odamlar bu libosdan g'arazli maqsadlarda foydalanganlar.

Ular bu liboslar yordamida o'zlarining ijtimoiy tuzumini o'ta jonkuyar himoyachisi qilib ko'rsatishga,kaltabinliklarini,munofiqliklarini yashirishga urinishgan.

Abdulla Qahhor hikoyada Nizomiddinovning tashqi qiyofasidagi ikkita detalni ta'kidlash orqali uning xarakteridagi ana shu jihatlariga ishora qilayapti. Shunisi e'tiborga loyiqki, "Munofiq" hikoyasida ham,boshqa hajviy hikoyalarda ham adib shoir talabiga amal qiladi-biron o'rinda partret chizishda batafsillikka berilmay,eng muhim detallargina qahramonning qiyofasini ochadi.

Tabiiyki,yozuvchi shunday ixcham partretning o'zi bilan qiyofalashga,obraz yetarli darajada ochilmay qolishi mumkin edi.

Shuning uchun u hikoya davomida Nizomiddinovning nutqini ham berib boradi.Natijada nutqiy xarakteristika qahramonning kim ekani to'la ko'rsatadi-da,uning mohiyatini ochishda muhim badiiy vositaga aylanadi.

U balandparvoz gaplarni yoqtiradi,hamma narsaga siyosiy tus beradi,qizil gaplar bilan o'zining demogogligini niqoblaydi.Satirik xarakter yaratishdagi bunday prinsip "Adabiyot muallimi", "O'jar", "San'atkor" kabi hikoyalarda ham yetakchi o'rin tutadi. Abdulla Qahhorning yana satiric hikoyalaridan biri "Mayiz yemagan xotin". Uning qahramoni-mulla norko'zi.

Yozuvchi bu odamning partretini chizmaydi,qiyofasini tasvirlamaydi,biografiyasini ko'rsatmaydi. Biz hatto uning nima ish bilan shug'ullanishi,kasbi kori qandayligini ham batafsilroq bilmaymiz.

Adib faqat bir o'rinda uning "har kuni bozordan qaytib,samovorga chiqishi" haqida gapiradi.Shunga qarab hukm qilganda mulla Norko'zi chayqovchilik bilan tiriklik qiladigan chorbozorchi .Biroq kasbi-kori mulla Norko'zining xarakterini ochishda yetakchi ahamiyatga ega emas-adib uning xarakterini xotin-qizlar masalasiga munosabati orqali ochadi.Mulla Norko'zi-xotin-qizlarni paranji tashlashga,ko'cha-kuylarda ochiq,erkin yurishga,foydali ijtimoiy mehnat bilan shug'ullanishga tish tirnog'i bilan qarshi.

Negaki,uninge'tiqodicha,ochilgan ayollarning hammasi buzuq. Ayol hayosini daxlsiz saqlaydigan

birdan-bir narsa paranji. Biroq hayot Mulla Norko'zi bichib-to'qigan kamchiliklarni tan olmagan holda olg'a harakat qilishda davom etadi. Uning qudrati qarshisida ojiz qolgan mulla Norko'zi paranji tashlagan ayollarni g'iybat qilib, yomon otliq qilishdan boshqaga yaramaydi: "Sotiboldining xotini dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob-muomila qiladi: axir bittasi bo'lmasa, bittasi ko'z qisadi-da!

Meliko'zining xotini avtobusda kanduktor, ba'zan yarim kechada keladi, ishi erta tugagan kuni ham yarim kechagacha ayshini qilsa, eri bilib o'tiriptimi?

Izzatillaning singlisi esa, artist haloyiqqa qarab maqom qiladi. Norbo'taning qizi doktorlikka o'qiydi, mingta oshnasi bor desang-chi! Erkaklarning ichida yurgandan keyin nima bo'lar edi!

Bo'yi yetib qolgan qizlarni maktabga yuvorgan otalilariga hayronman..."

Bu so'zlardan mulla Norko'zining qanaqa odamligi, madaniy saviyasi, fikrlash doirasi "mana men" deb ko'rinib turibdi. U o'zini "avliyo" fahmlaydi, "hayo" "poklik", "halollik" deb og'iz ko'pirtirib vaysaydi, o'zini "axmoq muhibi" deb biladi.

Aslida, esa o'z xotinini eplolmaydigan, kaltabin, befarosat, landovur bir kimsa...

Hikoyada mulla Norko'zining "hayolparvoligi" naqadar ayanchli ekanligi konkret voqea yordamida juda yaxshi ochiladi. Ma'lum bo'ladiki, mulla Norko'zi astoydil sog'ingan paranji hayo pardasi emas, hayosizlik, buzuqlik pardasi ekan, uning xotini paranjidan foydalanib begana bir erkak bilan ayshini

surib yurar ekan. Hikoyada mulla Norko'zining xotini ham yorqin satiric tip darajasiga ko'tarilgan.

To'g'ri, mulla Norko'zi kabi uning ham na nomi aytiladi, na partreti chiziladi, na biografiyasi beriladi. Lekin shunga qaramay, u bizning ko'z o'ngimizda shahvoniyatga berilgan, mulla Norko'ziday laqma odamning oldiga poxol solishga usta, uni ariqqa olib borib, sug'ormay olib keladigan xotin sifatida namoyon bo'ladi. Uning uddabironligi shu darajadaki, o'zining mulla Norko'ziga haqiqat farishta sifatida ko'rsatgan va bunga sho'ring qurg'ur laqma erni chippa-chin ishontiradi.

Hikoyada mulla Norko'zi xarakterining yana bir tomoni yaxshi ochilgan-u otdan tushsa ham, egaridan tushmaydiganlar toifasidan-sharmandasi chiqib, mahalla ahli oldida siri fosh bo'lsa ham gapini bermaslikka, o'zinikini maqullashga harakat qiladi.

Bu esa uning kulgili mohiyatini, bachkanaligini yanada yaxshiroq ochgan. Hikoyani yechimi mahorat bilan ishlangan:

“Devor ustida turgan o'n ikki yoshlardagi qiz devordan kesak ko'chirib olib, mulla Norko'ziga o'qtaladi:

-Hu o'l, turqing qursin! boshinga solayin shu bilan. Mahallada sasib, o'quvchi qizlarga kun bermaysan-ku, o'zing noto'g'ri ish qilasan...”

Bu achchiq ta'naga nima javob berish mumkin? Esliroq odam bo'lsa hijolat ichida indamay qo'yishi mumkin edi. Ammo mulla Norko'zi unday emas.

“U devor ustidagi qizga qarab, bo'g'iq tovush bilan o'shqirdi:

-Sen gapirma! Senga kim qo'yipti gapirishni! Usta Mavlonovning o'g'lidan bir hovuch mayiz olganingni o'z ko'zim bilan ko'rganman"

O'n ikki yashar qiz bola bilan mulla Norko'zi o'rtasidagi bu "daxshatli jang" shunchaki hikoyaning asosiy g'oyaviy mazmunini ochish uchungina yohud hikoya yozilishi,chiroyli qilish uchungina kiritilgan. Bu "tongda" xalq ijodining ruhi,ayniqsa,Xoja Nasriddin haqidagi latifalarning ruhi yaqqol sezilib turibdi.Afandi birovning bog'iga o'g'rillika tushib,qo'lga tushib qolganda,bog' egasining "bu yerda nima qilib yuripsan"? degan savoliga "nega xotiningga qovun olib bermading"?-deb javob beradi. Bunday javob latifada,ehtimol,kulgi tug'dirish uchungina xizmat qilar edi.Ammo shu ruhdagi dialog "mayiz yemagan xotin" hikoyasida qahramonnig salbiy mohiyatini chuqurroq ochishga yordam bergan.

Shu tariqa 30-yillar uchun muhim ahamiyat kasb etgan,keyinchalik o'z o'rnini boshqa jiddiy mavzularga bag'ishlab bergan masalaga bag'ishlangan bo'lsa-da,qahramonlar harakteri mahorat bilan yaratilgani uchun bu hikoya umrboqiylik kasb etadi.

Abdulla Qahhorning 30-yillardagi hajviy hikoyalarida insonning qadr-qimmatini pastga uradigan turli-tuman nuqsonlar,har xil illatlar badiiy jihatdan teranlik bilan atroflicha tadqiq qilingan.

Abdulla Qahhor fikriga ko'ra "Maskvadan eski kitoblar magazinini aylanib ko'rib,Тольстой,Чехов,Гоголь,Тургенов,Лермонтов,Дастаевский,Писарев,Белинский,Горкий asarlaridan 6-yashik kitoblar bilan qaytgan.

Shundan keyin rus adabiyoti darsiga sho'ng'ib ketgan. Bu voqealar men har bir yozuvchini chuqurroq o'rganishga, uning martabasini ulug', asarlarini go'zal qilgan sirlardan voqif bo'lishga kirishdim.

Shu maqsad bilan ishimni Chexovdan boshladim...

Chexovdan keyin Tol'stoy bilan jiddiy shug'ullandim.

Go'yo, bu yozuvchilarning har biri bir olam, bir-biridan teran, bir-biridan dono! Ularning asarlari eski qaziga o'xshamaydi, chaynalgani sari mazasi chiqadi.

Lekin shundoq bo'lsa-da, bu yozuvchilarning bittasi Abdulla Qahhorga juda manzur bo'ladi. Uning asarlarini o'qir ekan, ularning ko'p tomoni o'ziga yaqin ekanini his qiladi. Go'yo bu yozuvchining yuragi Abdulla Qahhornikiga hamohang urardi. U-chexov edi.

Adib Chexov asarlarining sinchiklab o'qib chiqqandan keyin g'alati hodisa yuz beradi. "Shunga alomat bir hodisa yuz berdi: Shu bilan muhtaram ustoz menga muborak ko'zoynaklarning berdilaru, mana buni taqib o'z xalqingni o'tmishiga nazar sol"-dedilar.

Ustozning muborak ko'zoynaklarini taqib xalqning o'tmishiga qaradim. Shunday qilib bolaligimda zehinda cho'kib qolgan xotiralar uyg'ondi, yuzaga chiqdi, o'sha vaqtdagi xalq hayoti ko'z oldimga keldi. Mana shuning natijasi bo'lib, o'ttizinchi yillarning o'rtalarida g'am-g'ussaga to'la "Og'ri", "Tomoshabog'", "Bemor", "Anor", "Millatchilar" vujudga keldi. Ustozning "Muborak ko'z oynagi" o'zbek adibining ko'zini ravshanroq qilib, zehinda cho'kib yotgan xotiralarni qayta tiriltirib, ayni choqda, asarni ayniqsa, hikoyani qanday yozish kerakligini, nima qilsa "kafdekkina"

hikoya san'at darajasiga ko'tarilib, umrboqiylik kasb etishi mumkinligini ham o'rgatdi. Abdulla Qahhor uslub bobida Chexovdan juda ko'p narsa o'rganganini e'tirof etar ekan, bunda uslubni faqat til hodisasi sifatida qaramaslik kerak. Abdulla Qahhor aytayotgan uslub hayotga chuqur nazar solishdan boshlab, unda nimani muhim va nimani nomuhim deb bilishigacha, esda qoladigan yorqin detallar yordamida xarakter yaratishdan boshlab, tilni soda va ravon qilishgacha hammasini qamrab oladi. Zamon, uslub faqat shakl masalasini emas, u shakl va mazmun uyg'unligidan tug'iladigan hodisadir. Shuning uchun ham Abdulla Qahhor uslubning huddi shu xususiyatini 1939-yildayoq e'tiborini jalb qilgan edi. U yozadi "Yovuz niyatli kishi" ni ming xil qilib yozish mumkin, lekin Denisin bundan ravshan, bundan mukammal tarzda gavdalandirish, bundan o'tadigan biron uslub topib, kitobxonga manzur qilish mumkin emas.

Bu Chexov ijodiyotiga xos xususiyat, Chexov yaratgan va rus adabiyoti taraqqiyoti yangi sahifa ochgan yo'l. Mana shu bilan Chexov butun dunyo adabiyoti tarixiga buyuk hikoyanafis bo'lib kiradi. U o'zining shu yaratgan shakli bilan rus, Yevropa va Amerika yozuvchilariga katta ta'sir qilgan.

Uning chertab taranglab turgan "kaftdekkina" hikoyalari o'zining chiroyliligi, haqqoniyligi, va turishini chuqur aks ettirishi bilan o'zuvchini o'ziga asir qiladi. Bu hikoyalarning har biri Chexov zamonasidagi Rossiya hayotining bir parchasi. Uning ijodidan butun Rossiyani ko'rish mumkin.

Uning butun ijodi o'tmishining qoralab yozilgan aybnomadir.

Abdulla Qahhor ustozidan ham, boshqa rus klassiklaridan ham shu darajada ko'p va ho'p o'rgandiki, natijada o'zi barkamollikning eng yuksak pog'onalariga ko'tarildi. Uning bu davrda yaratgan asarlari, ayniqsa 30-yillarning ikkinchi yarmida ijod qilgan hikoyalari tom ma'noda durdona asarlar bo'ldi. Ular o'zbek adabiyoti xazinasini boyitish bilan cheklanmay, butun ittifoq kitobxonasining mulkiga aylandi.

Abdulla Qahhorning o'zi esa, o'zbek adabiyotiga yangi realistik hikoya janrining asoschisi bo'lib qoladi. Uning hikoyalarini tahsin qilgan ba'zi bir adabiyotshunoslar yirik novellistlar qatoriga qo'yildi. Biroq bu darajaga yrtguncha adib ancha murakkab va mashaqqatli izlanish yo'lidan o'tdi.

Abdulla Qahhor hikoyalarini muvaffaqiyatini ta'minlagan muhim omillardan yana bir har qaysi hikoya syujeti va kompazitsiyasini shu hikoyaning g'oyaviy mazmuniga moslab ishlaganidir. Biroq hikoyada ortiqcha bayon, noo'rin tafsilot, keraksiz detal yo'q, sinchkov bilan rivojlanadi, uning oqimida hech qanday sun'iylik, zo'rma-zo'rlik sezilmaydi. Har qaysi hikoya ikki-uch epizoddan, ixcham lavhadan tashkil topgan bo'ladi.

30-yillarning o'rtalaridan boshlab, hikoyalar syujetini shakllantirishda Abdulla Qahhor Chexov tajribalaridan samarali foydalanadi: U ham ko'p hikoyalarida voqeani eng keskin nuqtadan boshlaydi, va biron o'rinda

drammatizimni susaytirmagan holda voqeani nuqtasiga yetkazadi. Ayni choqda ko'pkina hikoyalar kompozitsion ko'rinishida yozuvchi xalq ijodidan, birinchi navbatda, latifalardan foydalanganligi ko'rinadi. Ma'lumki latifalar ko'pincha bir-ikki lavhadan iborat bo'ladi-yu, keyin biron jumlada ifodalangan jumla bilan tugaydi.

B.B.Смирнова. “Современный портрет”

Xuddi shu yechimda latifalarning asosiy mag'zi, hikmati ifodalangan bo'ladi. Abdulla Qahhorning ko'pgina hajviy hikoyalari ham ana shunaqa kutilmagan yechimga ega. Ularda ham ba'zan hikoyalarning asosiy g'oyasi ifodalaniladi.

Ba'zan qahramon xarakterining so'ngi belgisi beriladi, ba'zan esa, bu yechim benihoya teran bir yumor bilan jiddiyligni yakunlaydi.

Nihoyat Abdulla Qahhor hikoyalarning tili g'oyat puxta tilanganligini, g'oyat rangdor va shirali ekanini qayd qilmoq lozim.

So'zsiz bu gaplar uning dramatic asarlariga ham xosdir. Biroq uning hikoyalarda va drammlarida yana ham yaqqolroq ko'zga tashlanadigan boshqa boshqa bir belgilar ham bor edi. Bu hayot nafasini davr ruhini behato ochish, faqat sezish emas, uni teran anglash, undan ulug' shaxs, adib sifatida dardlanish. Ha, dardlanish! Uning drammlarini tomosha qilar ekanmiz persanajlarining ba'zi birlarining ustidan kulib, g'azablanib yomon ko'rib qolamiz, ba'zilarida o'zimizda paydo bo'ladigan xayrxohlikni sezamiz. Ammo

bularning barchasini zamirida jamiyatimizning faol a'zosi, haqiqiy fuqaro ijtimoiy hayotdagi buzilishlarning ashaddiy dushmani, qalbi pok inson dardi turar edi. Biz o'sha dardni barilla eshitamiz, o'zimizni unga jo'r hisoblaymiz. Abdulla Qahhor 30-yillardagi ijodi davomida ayniqsa, ustoz Chexovning maktabida tahsil ko'rib, keyin asarlarida tilning hayotlilikiga intildi. Buning ijodning yetakchi prinsiplaridan biri darajasiga ko'tardi, va bu prinsipga izchillik bilan amal qildi.

Abdulla Qahhor hikoyalarining tili sodda va tabiiy. Biroq bu soddalik shunchaki to'nlik emas, aksincha u juda katta mehnat evaziga qo'lga kiritiladi.

Hikoylarda avtor nutqi huddi xalqning jonli tiliday ravon oqadi.

Buning ustiga har bir jumla fikri g'oyat tiniq ifodalashga xizmat qiladi. Ammo tilda soddalik va tabiiylik bilangina yuksak badiiylikka erishib bo'lmaydi. Shuning ham adib tilda puxta obrazlikka intiladi. Bu obrazlilik badiiy ta'svir vositalaridan unumli foydalanish evaziga maydonga keladi.

Yozuvchi xalq maqollari va materiallarini ham, turli ideomatik brikmlaridan ham keng foydalanadi.

Personajlardan nutqini ishlashda ham yozuvchi qahramon aytayotgan har bir jumlaning uning psixologik holatiga, madaniy saviyasiga, bilimiga, xarakteriga mos qilib tuzadi.

Bularning hammasi asar mazmunini o'quvchiga yetkazibgina qolmaydi, balki jonli, kankret manzaralar

yaratadi,qahramonlarning ichki dunyosini ochishga yordam beradi.

O'quvchida muayyan emotsuanal holat uyg'otadi va unga hadsiz estetik zavq bag'ishlaydi...

Abdulla Qahhor kam yozgan adiblardan.Ammo badiyat jihatdan uning ijodi to'lib-toshib oqqan katta daryo...

Uning ijodiga tegishli masalalar darrov va bir yoki bir necha kitob yozish bilan cheklana qolmaydi.

Bu daryo kelajakda ham mavj urib oqadi. Har bir avlod undan o'zicha zavq oladi,har bir davr adabiyotshunosligi unda yangi sir va ma'no topadi....!!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharafiddinov. O Abdulla Qahhor Toshkent 1988
2. Qo'shjonov M Abdulla Qahhor mahorati (T): «Adabiyot va San'at» 1988
3. Abdulla Qahhor «Qishloq hukm ostida» 1932, ilk kitobi
4. Abdulla Qahhor Sarob romani
5. Abdulla Qahhor Hikoyalar to'plami.
 1. «Kampirlar sim qoqdi »
 2. «Xotinlar»,
 3. «O'g'ri»,
 4. «Bemor»,
 5. «Anor»,
 6. «Sinchalak»,
7. Abdulla Qahhor .«Qo'shchinor chiroqlari» (1951, dastlab «Qo'shchinor» deb nomlangan. Bu asarda O'zbekistonda jamoa xo'jaligini tashkil qilish (kollektivlashtirish) jarayoni, bu jarayondagi murakkabliklar, kurash va qiyinchiliklar aks etgan.
13. «Shohi so'zana» (1950, qahramonlari: Dehqonboy, Hafiza, Xolbuvi, Saltanat va boshq. Bu asarni yozishda adib dramaturgiya janrida o'zini sinab ko'rmoqchi bo'lib, Mirzacho'ldagi bir jamoa xo'jaligiga ko'chib borgan),
14. Abdulla Qahhor «Og'riq tishlar» (1954),
15. Abdulla Qahhor «Tobutdan tovush» (1962, keyingi nomi «So'nggi nusxalar», poraxo'rlik illati fosh qilingan),
16. Abdulla Qahhor «Ayajonlarim» (1966),
17. Abdulla Qahhor «O'tmishdan ertaklar» (1964),
18. Abdulla Qahhor .«Muhabbat» (1966),
19. Abdulla Qahhor .«Mahalla»,
20. Abdulla Qahhor .«Tomoshabog'»,
21. Abdulla Qahhor .«Millatchilar»,
22. Abdulla Qahhor .«Adabiyot muallimi»,
23. Abdulla Qahhor «Zilzila» (tugallanmay qolib, uning vafotidai so'ng nashr etilgan)

